

**MAVZU: SHAXSIY XAVFSIZLIK MADANIYATINI TARBIYALASH –  
MADANIYATNING MUHIM TARKIBIY QISMI VA SHAXSNING  
SHAKLLANISHIDAGI MUHIM SOHASIDIR**

*Tasheva Nasiba Salimovna*

*Toshkent shahridagi Puchon Universiteti*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagি bolalarda shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Bugungi kunda bolalarda hayot xavsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari tadqiq etilib, mazkur masalada taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xavfsizlik, shaxs, talab, hayot, sog'lik, zarar, xavf-xatar.

### **Annotation**

This article analyzes the role and importance of forming a culture of personal safety in preschool children. Today, the current issues of ensuring the safety of life in children are researched, and suggestions and recommendations have been developed in this regard.

**Key words:** security, person, demand, life, health, damage, danger.

*"Inson ega bo'lgan eng qadrli narsa bu hayotdir".*

*N.A.Ostrovskiy*

Yer yuzida odamning paydo bo'lishi bilan bir vaqtida xavflardan himoya qilish muammosi paydo bo'ldi. Odamlar yovvoyi hayvonlar va tabiiy hodisalardan o'zlarini himoya qilishga harakat qilganlarida ko'plab xavfsizlik qoidalari shakllangan. Vaqt o'tishi bilan insonning yashash sharoitlari o'zgarishi bilan birga, hayot xavfsizligi qoidalari ham o'zgardi Endi ular shahar ko'chalarida transportning jadal harakatlanishi, rivojlangan aloqa tarmog'i, odamlarning katta to'planishi, uyni texniklashtirish bilan bog'liq.

Ko'pgina olimlarning ilmiy izlanishlari xavf-xatarlardan himoya qilish vositalari va usullarini ishlab chiqish uchun ilmiy asoslangan shart-sharoitlarni yaratdi. Hayotning xavfsizligi bugungi kunda jiddiy muammo bo'lib, olimlarning fikriga ko'ra, quyidagi uchta vazifani hal qilishni o'z ichiga oladi:

1. Xavfni identifikasiya qilish, ya'ni xavf-xatarlarni va ularning manbalarini aniqlash.
2. Profilaktika yoki oldini olish choralarini ishlab chiqish.
3. Mumkin bo'lgan oqibatlarni bartaraf etish.

Shunday qilib, xavfsizlik formulasi quyidagichadir: xavfni oldindan ko'ra bilish; imkon bo'lsa uni chetlab o'tish, zarurat bo'lsa harakat qilish lozim.

Xavf – hayot xavfsizligining markaziy tushunchasi bo'lib, u yashirin xarakterga ega. Xavfni belgilovchi belgilar quyidagilardir:

- Hayotga tahdid;
- Sog'likka zarar yetkazish ehtimolining mavjudligi;
- Inson organlari va tizimlarining normal ishlashi sharoitlarini buzish;

Shunday qilib, insonning xavfsiz xatti-harakatining 3 tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) Xavfni oldindan ko'ra bilish;
- 2) Xavfdan qochish;
- 3) Xavfni bartaraf etish.

Bola hayotining xavfsizligi va sog'lig'ini muhofaza qilish mактабгача ta'larning dolzarb vazifalaridan biridir. Bolani xavf-hatarlardan himoya qilishgina emas, balki bolani yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, xavfli vaziyatlarga duch kelishgina, xavfsiz xatti-harakatlar ko'nikmalarini shakllantirish ham muhimdir.

Mактабгача yoshdagi bolalarda xavfsiz xatti-harakatlarning asoslarini tarbiyalash bolada kutilmagan va uning hayoti va sog'ligi uchun xavfli holatlarda, uyda, maishiy hayotda va ko'chada, shahar transportida va tabiatda, begonalar bilan muloqot qilishda, yong'in xavfi bo'lgan va boshqa narsalar bilan o'zaro ta'sir qilishda, hayvonlar va zaharli o'simliklar bilan o'zaro aloqada elementar xatti-harakatlarning boshlang'ich ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida ta'larning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida xavfsiz hayot madaniyatini tarbiyalash belgilangan. Uning amalga oshirilishi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi" sohasining "Sog'lom turmush tarsi va xavfsizlik" kichik sohasida, "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohalaridagi tug'ilishdan maktabgacha bo'lgan bolaning ijtimoiy-axloqiy va shaxsiy rivojlanish yo'nalishi orqali quyidagi ta'lum komponentlariga asoslangan: "hayot xavfsizligi; kattalar bilan o'zaro munosabatlar; tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar; adaptiv ijtimoiy xulq; o'zi to'g'risidagi tasavvurlar; boshqalar to'g'risidagi tasavvurlar; o'zining samaradorligi va o'zini nazorat qilish; bolalar faoliyatining turlari".

Xavfsiz hayot madaniyatini tarbiyalashning maqsadi bolalarni xavfsiz xatti-harakatlar me'yorlari bilan tanishtirish, yoshni hisobga olgan holda xavfli vaziyatda zarur xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Mактабгача yoshdagi bolalarda xavfsiz xatti-harakatlar madaniyatini shakllantirish bo'yicha pedagogning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'z hayotini va sog'lig'ini, shuningdek, boshqalarning hayotini saqlab qolish bo'yicha faoliyatni o'zlashtirishga ko'maklashish;
- bolalardagi mustaqillik va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik, hayot va sog'liqni qadrlashga oid munosabatlarini rivojlantirish;
- xavfsiz hayot tajribasini kengaytirish, turli vaziyatlarda xavfsiz xatti-harakat qilishning asosli qarorlarini qabul qilish.

Yoshga qarab, vazifalarning mazmuni farqlanadi.

Shunday qilib, kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda xavfsiz xatti-harakatlar va munosabatlar qoidalariga, hayot va sog'liq uchun xavfli vaziyatlarga qiziqishning paydo bo'lishi rivojlantiriladi; maishiy hayotda xavfning asosiy manbalari (issiq suv, olov, o'tkir narsalar va boshqalar) haqida asosiy tushunchalar shakllantiriladi; ko'chada (transportda) va tabiatda (begona hayvonlar, suv omborlari) xavfsiz xatti-harakatlar (yo'lning chetidan yurmaslik, kattalarga yaqin bo'lish, ko'chani qo'ldan ushlab turish, yashil svetofor chirog'iga ko'ra harakatlanish), shu jumladan, bolalarning turli xil faoliyatları (samarali, harakatlar, musiqiy-badiiy, mehnat faoliyati) asosida o'rgatiladi.

O'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligini tarbiyalash bo'yicha ishlarning mazmuni xavfsiz xatti-harakatlar qoidalariga va odatda hayot va sog'liq uchun xavfli vaziyatlarga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga qiziqishni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirishga qaratiladi. Bolalar xavfli vaziyatlarning ayrim turlari (maishiy, ijtimoiy, tabiiy) haqida fikr yuritadilar; odatda xavfli vaziyatlarda odatdagi xavfsizlik xatti-harakatlari haqida (kattalar yo'qligida issiq suvni yoqmaslik, yoqilgan oshxona gazi yaqinida o'ynamaslik, oshxona anjomlarini maqsadiga ko'ra ishlatish, kattalardan keyin liftga kirish, kattalar yonida ularning qo'llarini ushlab svetoforning yashil chirog'iga yo'lni kesib o'tish va h. k.), shu jumladan bolalarning turli xil faoliyatları (samarali, harakatlar, musiqiy-badiiy, mehnat faoliyati) asosida o'rgatiladi; ba'zi standart xavfli vaziyatlarda xavfsiz xatti-harakatlar usullari o'rgatiladi (ko'chalarni, chorrahalarini, yo'lni kesib o'tish, lift, avtomobida harakatlanish, kesish moslamalarini, maishiy asboblarni ishlatish) va kattalarko'rsatmalariga amal qilish uqtiriladi.

Pedagog ishining mazmuni, shuningdek, standart xavfli vaziyatda kattalar yordami uchun murojaat qilish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratiladi.

Katta maktabgacha yoshda xavfsiz xatti-harakatlar qoidalariga bo'lgan qiziqishni chuqurlashtirish va odatda hayot va sog'liq uchun xavfli vaziyatlarga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, vaziyatni xavf va xavfsizlik nuqtai nazaridan baholash qobiliyatini rivojlantirish ishlari davom ettiriladi.

Bolalarning turli xil faoliyati (mehnat, samarali, harakatli, musiqiy- badiiy) asosida odatiy va noodatiy xavfli vaziyatlarda, xavfsiz xatti-harakatlar usullari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish va takomillashtirish davom ettiriladi.

Ba'zi odatiy xavfli vaziyatlarda (yo'lning qatnov qismida harakatlanishda, yo'lni, ko'chalarni, chorrahalarini kesib o'tishda, liftda, mashinada harakatlanayotganda) bolalarning xavfsiz xatti-harakatlari modellarini o'zlashtirilishi va agar kerak bo'lsa, kattalarning eslatmasisiz ularga murojaat qilish; odatiy va noodatiy xavfli vaziyatda kattalarga yordam berishlari uchun murojaat qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Tabiat uchun xavfli vaziyatlarning ayrim turlari (havo va suvning ifloslanishi, daryolar, kanallar va botqoqliklarning qurishi, daraxtlarni kesish, o'rmon yong'inlari) haqidagi tasavvurlar shakllanadi.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yildagi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'RQ-595-son Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yildagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standartlari 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun Ilk qadam Davlat o'quv dasturi Toshkent 2022 yil
5. Анастасова, Л.П., Иванова И.В., Ижевский П.В. Жизнь без опасностей. Первые шаги к самостоятельности/ Л.П. Анастасова, И.В. Иванова. – М.: Знание, 2016.
6. Белая, К.Ю. Как обеспечить безопасность дошкольников: Книга для воспитателей детского сада и родителей / К.Ю. Белая, В.Н. Зимонина. – М.: Знание, 2015.
7. Мошкин, В. Воспитание культуры личной безопасности / В. Мошкин // Основы безопасности жизнедеятельности. – 2016.
8. Sh. ShodmonovaMaktabgacha ta'lim pedagogikasi T., «Fan va texnologiya» 2008.